**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**

**OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI**

**TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**"TASDIQLAYMAN"**
Rektor _________ Sh.Sirojiddinov
"___" _______ 2023-yil ___ -avgust

Ro'yxatga olindi: ___________
2023-yil 28-avgust

# AMALIY O'ZBEK TILI

## O'QUV DASTURI

| | |
|---|---|
| **Bilim sohasi:** | 200 000 – San'at va gumanitar fanlar |
| **Ta'lim sohasi:** | 230 000 – Tillar |
| **Ta'lim yo'nalishi:** | 60230700 – Amaliy filologiya |

**Toshkent-2023**

| Fan/modul kodi Ao'T11-630 | | Fan/modul turi Majburiy | Ta'lim tili o'zbek | | Ishlab chiqilgan o'quv yili 2023/2024 | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| Semestr | Har bir semestrdagi fan/modulning nomi | ECTS - Kreditlar | Haftalik dars soatlari | Auditoriya mashg'ulotlari (soat) | Mustaqil ta'lim (soat) | Jami yuklama (soat) |
| 1 | Amaliy o'zbek tili (I qism. O'zbek tili ortologiyasi) | 5 | 4 | 60 | 90 | 150 |
| 2 | Amaliy o'zbek tili (II qism. O'zbek tili fonetikasi) | 5 | 4 | 60 | 90 | 150 |
| 3 | Amaliy o'zbek tili (III qism. O'zbek tili leksikologiyasi) | 5 | 4 | 60 | 90 | 150 |
| 4 | Amaliy o'zbek tili (IV qism. O'zbek tili morfologiyasi) | 5 | 4 | 60 | 90 | 150 |
| 5 | Amaliy o'zbek tili (V qism. O'zbek tili sintaksisi) | 5 | 4 | 60 | 90 | 150 |
| 6 | Amaliy o'zbek tili (VI qism. O'zbek tili amaliy stilistikasi) | 5 | 4 | 60 | 90 | 150 |
| | Jami: | 30 | 4 | 360 | 540 | 900 |

2

**I.Fanning mazmuni**

Fanni o'qitish orqali talabalarni Amaliy o'zbek tili fanining mazmuni, (tushunchalar, nazariyalar va ularning isboti, sohaning amaliy masalalarini yechish usullari va boshqalar), fonetik sathi va hodisalari, orfoepiyasi va orfografiyasi, morfologiyasi, sintaksisi, uslubiyati bilan tanishtirishdan iborat. Ayni paytda u talabalarni shu sohada mantiqiy fikrlashga, ilmiy xulosa chiqarishga, adabiy tilning nazariy va amaliy muammolarini hal etish ko'nikma va malakalari shakllantirishga xizmat qiladi.

Mazkur fanning **maqsadi** – o'zbek tilining amaliy masalalarini til sathlari nuqtayi nazaridan asoslab berishdan iboratdir. Shuningdek, fanni o'qitish jarayonida talabalarga lisoniy qonuniyatlar bo'yicha bilim berishda ilmiy tamoyil birligiga putur yetkazmaslikka, metodik ko'rsatmalarga amal qilishga, lisoniy qonuniyatlarning izohlanishiga ifoda usulining talabalarbop berilishiga e'tibor



qaratiladi va fan bo'yicha talabalarning tegishli bilim darajasini, shu bilimdan sohaga oid faoliyatda unumli foydalana olish ko'nikmalarini shakllantirish maqsad qilinadi. Shuningdek, hozirgi o'zbek tilining sistem-struktur xususiyatlari, leksik-frazeologik tarkibi, morfemik,morfologik xususiyatlari, sintaktik qurilishi, tadrijiy rivoji bo'yicha talabalar egallashi lozim bo'lgan nazariy va amaliy bilimlar tizimi tavsiya etildi; fan sohasi bo'yicha o'zbek tilshunosligida qo'lga kiritilgan eng so'nggi yutuqlarning ta'lim bosqichlari darsliklarida berilishi masalasini qiyosan o'rganishga doir ko'rsatmalar berildi.

**Vazifasi** – talabalarni o'zbek tilshunosligining fonetika, fonologiya, grafika, orfografiya, orfoepiya, leksikologiya, morfemika, morfologiya va sintaksis bo'limlari bilan tanishtirish, bu sohalarda qo'lga kiritilgan yutuqlar, bilimlar sirasi, ulardagi munozarali holatlar, g'oyalar va qarashlar, asosiy tushuncha va atamalar xususida ma'lumot berishdan iborat.

Talabalarga "Amaliy o'zbek tili" fanining ahamiyati, o'zbek tili fonetikasi, fonologiyasi, grafika, orfografiyasi va orfoepiyasi nazariy asoslariga oid bilim va tushunchalar berish, adabiy tilning shevalarga munosabati, o'zlashtirilgan nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llay olishga o'rgatish va natijada talabalarda o'zbek adabiy tilining asoslari va og'zaki adabiy tilning yozma adabiy nutq me'yorlariga munosabati kabilarni bilish, grammatik qoidalarga tayanib, o'z fikrini hayotiy misollar orqali asoslash, o'rganganlarini amalda qo'llay olish malakalarini shakllantirish mazkur fanning asosiy vazifalaridandir.

### II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

**II.1. Amaliy o'zbek tili (I qism. O'zbek tili ortologiyasi) fani tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:**

#### 1-mavzu. "O'zbek tili ortologiyasi" faniga kirish. Tilning ilmiy me'yorlari

"O'zbek tili ortologiyasi" fanining maqsadi va vazifalari, obyekti, predmeti. Til va yozuvning o'zaro munosabati. Yozma va og'zaki nutq me'yorlari. Yozuvning asosiy komponentlari va lingvistik va ekstralingvistik asoslari.

Ortologiya – tilning ilmiy me'yorlari haqidagi fan.

#### 2-mavzu. Grafika. O'zbek tilining yozuv tizimi

Grafika va grafema tushunchasi. Yozuvning tarixiy ahamiyati. O'zbek yozuvi tarixi. Grafema va grafemika tadqiqi. O'zbek tilshunosligida grafika va grafemika masalalarining yoritilishi. Grafemalar tasnifi.

#### 3-mavzu. Og'zaki nutq me'yorlari (Orfoepiya)

Orfoepiya haqida umumiy ma'lumot. O'zbek orfoepiyasining me'yorlari. Ayrim unli va undoshlar orfoepiyasi. Ayrim grammatik shakllar orfoepiyasi

**4-mavzu. O'zbek orfografiyasi va uning asosiy tamoyillari**

Orfografiya haqida umumiy ma'lumot. Orfografiya qoidalarining tuzilishiga asos bo'lgan tamoyillar.

Imlo qoidalarida orfografiya tamoyillarining ishtiroki.

**5-mavzu. O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari. Harflar imlosi.**

Lotin alifbosiga asoslangan o'zbek imlosi haqida. Harflar imlosi

Unlilar imlosi. Undoshlar imlosi.

**6-mavzu. Asos va qo'shimchalar imlosi. Qo'shib yozish qoidalari**

Asos va qo'shimchalar imlosi.

Qo'shib yozish qoidalari haqida ma'lumot.

**7-mavzu. Chiziqcha bilan yozish, ajratib yozish, bosh harflar imlosi, ko'chirish qoidalari**

Chiziqcha bilan yozish qoidalari. Ajratib yozish qoidalari. Bosh harflar imlosi. Ko'chirish qoidalari.

**8-mavzu. Punktuatsiya fani, uning tarixi. Punktuatsiyaning ilmiy asoslari va qo'llash tamoyillari**

Tinish belgilarini o'rganish zarurati. Punktuatsiya va punktuatsion me'yor.

Tinish belgilarining kelib chiqish tarixi. O'zbek punktuatsiyasi tarixi. Punktuatsiya asoslarini belgilashda uch xil nuqtayi nazar mavjudligi. Punktuatsion qoidalarni belgilashda semantikaga – gapning mazmuniga e'tiborni qaratish. Punktuatsion qoidalarni belgilashda sintaktik qurilishga tayanish.

Punktuatsion qonun-qoidalarni gap ohangi, intonatsiyasi bilan bog'lash. Punktuatsiyaning qo'llanish tamoyillari.

**9-mavzu. O'zbek tilida tinish belgilari tasnifi. Tinish belgilarining ishlatilish o'rinlari**

Qo'llanish o'rniga ko'ra tinish belgilarining turlari. Ishlatilish usuliga ko'ra tinish belgilarining turlari. Tuzilishiga ko'ra tinish belgilarining turlari

Vazifasiga ko'ra tinish belgilarining turlari. Tinish belgilarining takror va qator ishlatilishi. Nuqta va uning ishlatilish o'rinlari. Vergul va uning ishlatilish o'rinlari. So'roq belgisi va uning ishlatilish o'rinlari.

Undov belgisi va uning ishlatilish o'rinlari. Qavs va uning ishlatilish o'rinlari. Ko'p nuqta va uning ishlatilish o'rinlari. Tire va uning ishlatilish o'rinlari. Qo'shtirnoq va uning ishlatilish o'rinlari. Ikki nuqta va uning ishlatilish o'rinlari. Nuqtali vergul va uning ishlatilish o'rinlari

**10-mavzu. Qo'shma gaplarda tinish belgilarining ishlatilishi. Zamonaviy o'zbek punktuatsiyasining dolzarb muammolari**



Ohang yordamida birikkan qo'shma gaplar orasida vergulning ishlatilishi. Ohang yordamida birikkan qo'shma gaplar orasida ikki nuqtaning ishlatilishi. Ohang yordamida birikkan qo'shma gaplar orasida tirening ishlatilishi.

Ohang yordamida birikkan qo'shma gaplar orasida nuqtali vergulning ishlatilishi. Ko'chirma gapli qo'shma gaplarda tinish belgilarining ishlatilishi.

Muallif punktuatsiyasi. Tinish belgilari sinonimiyasi

Kompyuter lingvistikasi va unda tinish belgilarining o'rni. O'zbek tilshunosligi taraqqiyoti va punktuatsiya muammolari

**II.2. Amaliy o'zbek tili (II qism. O'zbek tili fonetikasi) fani tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:**

**1-mavzu. "O'zbek tili fonetikasi" faniga kirish. Tilning fonetik me'yorlari**

"O'zbek tili fonetikasi" fanining maqsadi va vazifalari, obyekti, predmeti. Fonema va tovushning o'zaro munosabati. Tilning fonetik me'yorlari

Fonetika – tilning tovush tizimi haqidagi fan.

**2-mavzu. Fonetika haqida ma'lumot. Fonetika va uning turlari.**

Fonetika haqida umumiy ma'lumot, Fonema, fonologiya. Fonetika turlari. Umumiy fonetika, xususiy fonetika, qiyosiy fonetika. Ularning bir-biridan farqli jihatlari.

**3-mavzu. Fonologiya va uning o'rganish obyekti**

Fonologiya haqida umumiy ma'lumot. Til sathlari, lison, nutq, lisoniy sath, nutqiy sath, til birligi, lisoniy birlik, nutqiy birlik. Fonema. Fonemalarning ma'no farqlash vazifasi. Fonemalarning boshqa vazifalari.

**4-mavzu. Unli fonemalar paradigmasi**

Fonemalar tasnifi. Unli va undosh fonemalar. Unli fonemalar paradigmasi. Unli fonemalarga xos xususiyatlar. Unli fonemalar tasnifi. Unlilarning bo'g'in hosil qilishi.

**5-mavzu. Undosh fonemalar paradigmasi**

Undosh fonemalar paradigmasi. Undosh fonemalarga xos xususiyatlar. Undosh fonemalar tasnifi. Hosil bo'lish o'rniga ko'ra tasnifi. Hosil bo'lish usuliga ko'ra tasnifi. Ovoz va shovqinning ishtirokiga ko'ra tasnifi. Undoshlar imlosi.

**6-mavzu. Fonetik hodisalar**

Fonetik hodisalar tasnifi. Tovush tushishi. Tovush almashinishi. Tovush ortishi. Bu hodisalarning asos va qo'shimchalar imlosi bilan aloqasi. Yozuvda aks etadigan fonetik hodisalar. Yozuvda aks etmaydigan fonetik hodisalar.

**7-mavzu. Yozuvda aks etmaydigan fonetik hodisalar**

Yozuvda aks etmaydigan fonetik hodisalar. Yuzaga kelish sabablari. Assimilatsiya. Dissimilatsiya. Metateza. Prokopa.

**8-mavzu. Urg'u va uning turlari**

Urg'u va uning og'zaki nutqdagi ahamiyati. Urg'uning ma'no farqlash vazifasi. Urg'uning so'z chegarasini belgilashdagi ahamiyati. Urg'u turlari. So'z urg'usi. Gap urg'usi. Emfatik urg'u. Urg'u yordamida ma'nosi farqlanadigan so'zlar.

**9-mavzu. Bo'g'in va uning turlari**

Bo'g'in va uning ahamiyati. O'zbek tilidagi bo'g'in modellari. Bo'g'in turlari. Ochiq bo'g'in. Yopiq bo'g'in. Berkitilgan bo'g'in. Berkitilmagan bo'g'in.

**10-mavzu. Tovush o'zgarishlarining o'zbek tilini sun'iy intellekt uchun moslashtirishda yuzaga keltiradigan muammolari**

Tovush o'zgarishlarining o'zbek tilini sun'iy intellekt uchun moslashtirishda yuzaga keltiradigan muammolari. Kompyuter lingvistikasi. So'zshakl modellari. Korpus lingvistikasi. Tabiiy tilni qayta ishlash jarayonlari. Fleksiya.

**II.3. Amaliy o'zbek tili (III qism. O'zbek tili leksikologiyasi) fani tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:**

**1-mavzu. Leksika, leksik-semantik sath va leksikologiya**

Leksika. Semantika. Leksik-semantik sath. Leksikologiya, leksik ma'no, grammatik ma'no, leksema, semema, nomema. O'z ma'no. Ko'chma ma'no.

**2-mavzu. Leksemada shakl va mazmun**

Lison, nutq, lisoniy birlik, nutqiy birlik, leksema, so'z, shakl, mazmun. Leksemaning ifoda va mazmun plani.

**3-mavzu. Yasama so'zlarning leksemalashuvi.**

Yasama so'zlar, leksemalashuv hodisasi. Lison, nutq, lisoniy birlik, nutqiy birlik, leksema, so'z, qolip, hosila

**4-mavzu. Leksema sememasining tarkibi**

Sema, atash semasi, ifoda semasi, vazifa semasi, birlashtiruvchi belgi, farqlovchi belgi, relevant belgi, irrelevant belgi

**5-mavzu. Leksemaning semantik ko'lami**

Atash semasi, ifoda semasi, vazifa semasi, birlashtiruvchi belgi, farqlovchi belgi, relevant belgi, irrelevant belgi

**6-mavzu. Leksik-semantik munosabatlar**



Leksemalar orasidagi sinonimik munosabat. Leksemalar orasidagi antonimik munosabat. Leksemalar orasidagi omonimik munosabat. Leksemalar partonimik munosabat.

**7-mavzu. O'zbek tili leksikasi tasnifi**

Leksema, so'z, tasnif, leksika, qatlam, qo'llanish doirasi, qo'llanish davri, ifodaviylik

**8-mavzu. Barqaror birikmalar**

Barqaror birikmalarning turlari. Frazeologizmlar. Maqol va matallar. Hikmatli so'zlar. Frazeologizmlar orasidagi leksik-semantik munosabatlar.

**9-mavzu. Leksikografiya haqida ma'lumot. Lug'at va uning turlari**

Lug'at, lug'at turlari, qomusiy va lingvistik lug'atlar. Izohli lug'at. Tarjima lug'at. Imlo lug'ati. Ters lug'at. Chastotali lug'at.

**10-mavzu. Lug'at tuzish me'yorlari**

Lug'at tuzish amaliyoti va nazariyasi. Kompyuter lingvistikasi. Elektron lug'atlar. Korpus. Tabiiy tilni qayta ishlash jarayonlari.

**II.4. Amaliy o'zbek tili (IV qism. O'zbek tili morfologiyasi) fani tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:**

**1-mavzu. Grammatik ma'no va grammatik shakl**

Morfologik tarkib, yetakchi morfema, ko'makchi morfema, grammatik ma'no, grammatik shakl. Umumiy grammatik ma'no (UGM). Xususiy grammatik ma'no.

**2-mavzu. So'z turkumlari va ularni tasniflash tamoyillari**

Grammatika, morfologiya, so'zlarni turkumlarga ajratish tamoyillari, mustaqil so'z turkumlari, yordamchi so'z turkumlari, alohida olingan so'z turkumlari

**3-mavzu. Otning UGMsi, derivatsiyasi, morfologik belgilari va tasniflovchi kategoriyalari**

Otning UGMsi, derivatsiyasi, morfologik belgilari va tasniflovchi kategoriyalari. Kelishik, egalik, son kategoriyalari.

**4-mavzu. Sifat va sonning UGMsi, morfologik belgilari**

Sifat va uning ma'noviy turlari. Sifat darajalari. Sifatlarning otlashuvi. Son va uning ma'noviy turlari. Miqdor son. Tartib son. Sanoq son. Dona son.Chama son. Jamlovchi son. Taqsim son. Kasr son.

**5-mavzu. Ravish va olmosh, ularning UGMsi**

Ravish, olmosh, ravishning semantik va grammatik xususiyatlari, ichi bo'sh so'zlar. Ravishning ma'noviy guruhlari. Holat, sabab, payt, o'rin, miqdor, maqsad

ravishlari. Ravishlarning yasalishi. Olmoshning ma'noviy guruhlari. Tuzilishiga ko'ra turlari.

**6-mavzu. Fe'l va uning UGMsi. Fe'l derivatsiyasi. Fe'lning tasniflovchi grammatik kategoriyalari.**

Fe'l va uning UGMsi. Fe'l derivatsiyasi. Fe'lning tasniflovchi grammatik kategoriyalari. Fe'l yasalishi. Fe'lning ma'noviy guruhlari. Fe'l nisbatlari. O'timli va o'timsiz fe'llar.

**7-mavzu. Fe'llarda aloqa-munosabat kategoriyalarining voqelanishi**

Fe'llarda aloqa-munosabat kategoriyalarining voqelanishi. Mayl kategoriyasi. Xabar mayli. Buyruq-istak mayli. Shart mayli. Maqsad mayli. Zamon kategoriyasi. O'tgan zamon va uning grammatik shakllari. Hozirgi zamon va uning grammatik shakllari. Kelasi zamon va uning grammatik shakllari. Shaxs-son kategoriyasi.

**8-mavzu. Leksemalar tasnifida "ma'noviy nomustaqillik" tushunchasi. Ko'makchi**

Leksemalar tasnifida "ma'noviy nomustaqillik" tushunchasi. Ko'makchi va uning turlari. Sof ko'makchi. Vazifadosh ko'makchi. Ko'makchi va kelishik sinonimiyasi.

**9-mavzu. Bog'lovchi va yuklama**

Bog'lovchi va uning turlari. Sof va vazifadosh bog'lovchilar. Teng va ergashtiruvchi bog'lovchilar. Biriktiruv, zidlov, ayiruv, inkor bog'lovchilari. Sabab, aniqlov bog'lovchilari. Yuklama va uning turlari. Sof va vazifadosh yuklamalar. So'roq-taajjub, ayiruv-chegaralov, o'xshatish, kuchaytiruv-ta'kid, inkor yuklamalar.

**10-mavzu. Alohida olingan so'zlar**

Alohida olingan so'zlar. Undov so'zlar. His-hayajon undovlari va buyruq-xitob undovlari. Taqlid so'zlar. Ovozga va holatga taqlid so'zlar. Modal so'zlar va ularning ma'no turlari.

**II.5. Amaliy o'zbek tili (V qism. O'zbek tili sintaksisi) fani tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:**

**1-mavzu. Sintaksisning tadqiq manbayi va bo'limlari. Nutq sintaksisi va lisoniy sintaksis**

Sintaksisning tadqiq manbayi. Asosiy sintaktik birliklar. Formal va sistemaviy (struktur) sintaksis. So'z birikmasi(SB) sintaksisi va gap sintaksisi. Lisoniy sintaktik qolip (LSQ). LSQ – sintaksisning o'rganish obyekti.

**2-mavzu. Lisoniy sintaktik qolip**



Qolip, hosila, qolipning tarkibi, umumiylik, xususiylik, umumlashtirish, nosintaktik hodisa, qolipning shakliy tomoni, qolipning mazmuniy tomoni

**3-mavzu. So'z birikmasi lisoniy sathda**

Lison, nutq, lisoniy birlik, nutqiy birlik, qolip, hosila, valentlik, birikuv omillari, joylashuv omili, shakliy omil, ma'noviy omil, biriktiruv, boshqaruv, moslashuvli so'z birikmalari

**4-mavzu. Gap LSQsi va uning tiklanishi**

Lison, nutq, lisoniy birlik, nutqiy birlik, qolip, hosila, umumiylik va umumlashtirish, nosintaktik hodisalar, murakkablashtiruvchi vositalar

**5-mavzu. Gap markazi. Kengaytiruvchilar**

Nutqiy gapning belgilari. Gapning shakllanishida leksik va morfologik omillar. Gapning lisoniy qurilishi va minimal qolipi. Kesim. Gap markaziga tobelanuvchi bo'laklar.

**6-mavzu. Grammatik shakllangan gapning minimal va maksimal lisoniy sintaktik qolip**

Grammatik shakllangan gap, semantik-funksional shakllangan gap, minimal qolip, maksimal qolip, gap kengaytiruvchisi, so'z kengaytiruvchisi, gap markazi, gap bo'lagi

**7-mavzu. Qo'shma gapning lisoniy sintaktik qurilishi va turlari**

Qo'shma gap(QG)ni belgilovchi lisoniy va nutqiy mezonlar. [Wpm U WPm]=QG – QGning umumiy lisoniy sintaktik qurilish qolipi. QGning serqirraligi va tasnifi. QG

**8-mavzu. Murakkab qo'shma gaplar**

QG tarkibiy qismlarining miqdori va nutqiy voqelanishi. Bir necha ergash gapli murakkab qo'shma gap. Bir necha bosh gapli murakkab qo'shma gap. Qismlari uyushgan murakkab qo'shma gap. Aralash murakkab qo'shma gap.

Murakkab QGlarning lisoniy sintaktik qurilishi.

**9-mavzu. Uyushgan gaplar**

Uyushiq bo'lak, uyushiq bo'lakli SG va uyushgan gap. Uyushgan gaplarning tarkibi. Uyushgan gaplarda kesimlik shakllari. Uyushgan gaplarda eganing o'rni. Uyushgan gaplarning LSQi.

**10-mavzu. O'zga gap. Uning turlari**

O'zga gap. Ko'chirma va o'zlashtirma gaplar. O'zga gaplarning gap sintaksisi tizimidagi o'rni. O'zga gap va QG orasidagi munosabat. Ko'chirma va o'zlashtirma gaplarda tinish belgilarining qo'llanilishi

**II.6. Amaliy o'zbek tili (VI qism. O'zbek tili amaliy stilistikasi) fani tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:**

**1-mavzu: Til va uslubiyat haqida umumiy ma'lumot**

Til, nutq, uslub, uslubiyat(stilistika) nutqiy faoliyat, amaliy tilshunoslik, lisoniy, nolisoniy, mantiq, mantiqiy fikrlash, so'z qo'llash. Ijobiy va salbiy baho semalari. Sinonimlar qatoridan so'z tanlash.

**2-mavzu. Adabiy nutq ijtimoiy kommunikatsiya asosi**

Til, uslub, matn tahlili, nutq uslubi, muallif uslubi, adabiy til me'yori, adabiy tahrir, matn muallifi, asar tili va uslubi, so'z qo'llash. Adabiy til me'yorlarining umumiylik xususiyati va uning barcha uchun tushunarliligi.

**3-mavzu. Uslubiyatda til birliklarining muayyan vazifani bajarishi**

Uslubiyatda til birliklarining muayyan vazifani bajarishi. Ma'noviy jihatdan o'xshash bo'lgan til birliklarining uslubga ko'ra farqlanishi holatlari. Til birliklari so'zlovchi ehtiyojining ifodachisi sifatida.

**4-mavzu. Funksiyaviy uslub turlari**

Funksiyaviy uslub turlari. So'zlashuv uslubi. Publitsistik uslub. Ilmiy uslub. Rasmiy-idoraviy uslub. Badiiy uslub. Uslublarning farqlovchi belgilari. Funksiyaviy uslub sohalari.

**5-mavzu. So'zlashuv nutqining tasnifi**

So'zlashuv nutqining tasnifi. Adabiy so'zlashuv uslubi. Oddiy so'zlashuv uslubi. Yozma matnda baddiy asarlar tarkibida oddiy so'zlashuvdan foydalanish. So'zlashuv uslubining adabiy tildagi ahamiyati

**6-mavzu. Rasmiy ish yuritish uslubi**

Rasmiy ish yuritish uslubining vazifasi. Ish qog'ozlari va ularga xos jihatlar. Har bir hujjat shakli matnining leksik-semantik, morfologik, sintaktik jihatdan o'ziga xosligi.

**7-mavzu. Rasmiy-ish yuritish uslubida sintaktik konstruksiyalash**

Rasmiy-ish yuritish uslubida sintaktik konstruksiyalash. Hujjat matnlarining sintaktik qurilish qolipi. Qoliplarning o'zgarmas, umumiylik xarakteriga ega ekanligi.

**8-mavzu. Ilmiy uslub va uning o'ziga xos xususiyatlari**

Ilmiy uslubda janr va-nutq turi. Ilmiy uslubga xos sintaktik konstruksiyalar. So'zlarning qo'llanilishi. Faktga asoslanganlik. Har bir fikrning dalillanishi. Ilmiy maqola. Dissertatsiyalar. Monografiyalar.



**9-mavzu. Publisistik uslubning vazifasi**

Publisistik uslubning vazifasi. Publisistik og'zaki nutq tuzilishi. Publitsistik uslubning xususiyatlari. Ommani jalb etish. Tushunarlilik. Ta'sirchanlik. Televideniye va radio suxandonlari nutqi

**10-mavzu. Badiiy uslub va uning xususiyatlari**

Badiiy uslub. Badiiy asar tili. Badiiy uslubning xususiyatlari. Estetik ta'sir etish. Badiiy tasvir vositalaridan foydalanish. O'xshatish, mubolog'a badiiy uslubning asosiy vositalari sifatida.

**III. Amaliy mashg'ulot bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar:**

***III.1. Amaliy o'zbek tili (I qism. O'zbek tili ortologiyasi) fanidan amaliy mashg'ulot uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:***

1. Yozma nutqning nazariy masalalari. Yozuv va yozuv tarixi.
2. O'zbek tilshunosligida grafika va grafemika masalalarining yoritilishi
3. Lotin alifbosiga asoslangan yozuv. Kirill va lotin alifbosiga asoslangan imlo qoidalari qiyosiy tahlili.
4. O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari. Harflar imlosi. Asos va qo'shimchalar imlosi.
5. Qo'shib, ajratib, chiziqcha bilan yozish qoidalari.
6. Bosh harflar imlosi. Bo'g'in ko'chirish qoidalari.
7. Punktuatsiya tarixi. Punktuatsion nazariyalarning shakllanishi
8. Punktuatsiya va uning prinsiplari. Tinish belgilarini qo'llash tamoyillari
9. Punktuatsiyaning boshqa sohalar bilan o'zaro aloqasi
10. Tinish belgilari tasnifi
11. Tinish belgilarining poetik imkoniyatlari
12. Tinish belgilarida polufunksionallik, ma'nodoshlik
13. Nuqtaning qo'llanilishi
14. So'roq va undovning qo'llanilishi
15. Vergulning qo'llanilishi
16. Nuqtali vergul va ko'p nuqtaning qo'llanilishi
17. Ikki nuqtaning qo'llanilishi
18. Qavsning qo'llanilishi
19. Tirening qo'llanilishi
20. Kompyuter lingvistikasi va unda tinish belgilarining o'rni.

***III.2. Amaliy o'zbek tili (II qism. O'zbek tili fonetikasi) fanidan amaliy mashg'ulot uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:***

1. Fonetika haqida umumiy ma'lumot.
2. Fonologiya haqida ma'lumot
3. Tovush va fonema munosabati

4. Nutq tovushlarining uch tomoni.
5. Fonemlar tasnifi. Unli fonemalar tasnifi
6. Undosh fonemalar tasnifi
7. Fonetik hodisalar tasnifi. Tovush tushishi.
8.Tovush almashinishi va tovush ortishi.
9. Yozuvda aks etmaydigan fonetik hodisalar.
10. Urg'u va uning og'zaki nutqdagi ahamiyati.
11. Urg'u turlari. So'z urg'usi.
12. Gap urg'usi. Emfatik urg'u.
13. Bo'g'in va uning ahamiyati.
14. Bo'g'in turlari.
15. Tovush o'zgarishlarining o'zbek tilini sun'iy intellekt uchun moslashtirishda yuzaga keltiradigan muammolari.

***III.3. Amaliy o'zbek tili (III qism. O'zbek tili leksikologiyasi) fanidan amaliy mashg'ulot uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:***

1. Leksema UMIS va AHVO sifatida farqlash bo'yicha amaliy ish
2. Leksemani tarkibiy qismlarga ajrata olish, semema strukturasi bo'yicha amaliy ish
3. Semema va tushuncha munosabatlariga doir amaliy ish
4. Tildagi metafora, metonimiya, sinekdoxa, vazifadoshlik ko'chish usullari bo'yicha amaliy ish
5. Leksik semantik munosabat turlarini farqlash bo'yicha mashq.
6. Leksik omonimiya, antonimiya, paronimiya yuzasidan tahlil
7. O'zbek tili lug'at tarkibidagi eski, eskirgan ( tarixiy va arxaik), zamonaviy va yangi so'zlar ustida amaliy ish
8. Dialektizmlar, kasb-hunar leksikasi, jargonlar, argonlar, vulgar birliklar ustida amaliy ish
9. Leksema va frazema, ularning o'xshash va farqli tomonlarini aniqlash bo'yicha amaliy mashq
10. Maqol va matallar mazmuni ustida mashq
11. Iboralarning semantik strukturasini aniqlashga doir mashqlar
12. Lug'at tiplari va turlari. Qomusiy va filologik lug'atlar, ularning turlarini farqlashga doir mashqlar
13. Chastotali va ters lug'atlar tahlili
14. Izohli lug'atlar tahlili
15. Tarjima lug'atlari tahlili

***III.4. Amaliy o'zbek tili (IV qism. O'zbek tili morfologiyasi) fanidan amaliy mashg'ulot uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:***



1. Grammatik ma'no va uni ifodalovchi vositalar.
2. GM turlari va GM ma'no tarkibini ochish ustida mashqlar
3. UGMni ochish yo'llari , so'zshakl va uning asosiy turlari ustida mashq
4. Grammatik kategoriya va uning turlari ustida mashq
5. So'z turkumlari tasnifi. Munozara
6. Ot va uning UGM va grammatik kategoriyalari ustida mashqlar
7. Sifat va uning UGM va grammatik kategoriyalari ustida mashqlar
8. Son va uning UGMsi va grammatik kategoriyalari ustida mashqlar
9. Ravish o'zgarmas so'z turkumi sifatida. Olmosh so'z turkumiga so'zlar tahlili.
10. Fe'l va UMGsi, derivatsiyasi.Munozara
11. Fe'lning tavsiflovchi grammatik kategoriyalari ustida mashq
12. Fe'llarda aloqa –munosabat kategoriyasilari ustida mashq
13. Taqlid va uning UGMsi, LMTsi. Munozara
14. Yordamchi so'zlarni aniqlashga doir mashqlar
15. So'z -gap tasnifi ustida amaliy ish

***III.5. Amaliy o'zbek tili (V qism. O'zbek tili sintaksisi) fanidan amaliy mashg'ulot uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:***

1. So'z birikmasi LSQlarining nutqiy voqelanishini aniqlashga doir mashqlar
2. So'z birikmasida kengayuvchi va kengaytiruvchi so'zlarni badiiy matn asosida o'rganish
3. Sodda gapning eng kichik qurilish qolipi va uning hosilalarini aniqlashga doir mashq
4. So'z kengaytiruvchilarini SGLSQ hosilalari asosida o'rganish
5. Gap kengaytiruvchilari va sodda gapning lisoniy qurilishi
6. Sodda gap turlarini matn asosida o'rganish
7. Teng tarkibli qo'shma gaplarni matn asosida o'rganish
8. Tobe tarkibli qo'shma gaplarning nutqiy voqelanishi tahlili
9. Mutanosib bog'lanishli qo'shma gaplarning lisoniy va nutqiy xususiyatlari tahlili
10. Murakkab qo'shma gapning nutqiy ko'rinishlarini aniqlashga doir amaliy mashq
11. Uyushgan gaplarda [Pm] shakllari va ularning matn asosidagi tahlili
12. Murakkablashgan soda gaplar
13. O'zga gap turlarining nutqiy voqelanishi tahlili
14. Ko'chirma gapli qo'shma gapda tinish belgilarining ishlatilishi
15. Matn va MSBlar

***III.6. Amaliy o'zbek tili (VI qism. O'zbek tili amaliy stilistikasi) fanidan amaliy mashg'ulot uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:***

1. Til birliklarining uslubga xoslanishi yuzasidan tahlil
2. Nutq madaniyati va uslubiyat yuzasidan mashq bajarish.
3. Funksiyaviy uslubning turlari
4. Funksiyaviy-uslubiy soha
5. So'zlashuv nutqining turlari.
6. Oddiy so'zlashuv uslubi yuzasidan tahlil
7. Rasmiy-ish yuritishda nutq tuzilishi.
8. Rasmiy-ish yuritishga xos sintaktik konstruksiyalar.
9. Publitsistik uslubdagi matn tahlili.
10. Publisistikaga xos so'zlar, birikmalar va iboralar.
11. Nutq uslublarida frazeologizmlardan foydalanish.
12. Ilmiy matn tahlili.
13. Ilmiy uslubda ta'rif va terminlar, ular yuzasidan mashq bajarish
14. Ilmiy matndagi kirish so'z, kiritmalar yuzasidan amaliy mashq bajarish
15. Ilmiy matnni ilmiy-ommabop shaklga keltirish
16. Ilmiy-ommabop adabiyotlar uslubidagi o'ziga xosliklar
17. Ilmiy uslubda umumiste'moldagi va umumadabiy so'zlarning qo'llanilishi.
18. Badiiy asar matnini til va uslub nuqtayi nazaridan tahlil qilish
19. Personaj nutqi, nutq turini aniqlash va unda qo'llanilgan til birliklarini tahlil qilish.
20. Badiiy matnni baholash.

## IV. Seminar mashg'ulot bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar:

***IV.1. Amaliy o'zbek tili (II qism. O'zbek tili fonetikasi) fanidan seminar mashg'ulot uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:***

1. Tovush va fonema munosabati
2. Tovushlarning akustik va fiziologik xususiyatlari
3. Imloda fonetik va morfologik tamoyil
4. Urg'uning ma'no farqlash vazifasi
5. O'zbek tilidagi bo'g'in modellari.

***IV.2. Amaliy o'zbek tili (III qism. O'zbek tili leksikologiyasi) fanidan seminar mashg'ulot uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:***

1. Dunyo tilshunosligida leksema talqini
2. Leksik-semantik munosabat lisoniy munosabatlarning xususiy ko'rishi sifatida
3. Frazemalarning semantik xususiyatlari va tasnifi masalasi
4. Lug'at va uning turlari. Lug'at tuzish me'yorlari
5. So'z yasalishining diaxron va sinxron xususiyatlari.



***IV.3. Amaliy o'zbek tili (IV qism. O'zbek tili morfologiyasi) fanidan seminar mashg'ulot uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:***

1. O'zbek tilshunosligida grammatik kategoriyaning tasniflanishi
2. So'z turkumlari tasnifi haqida olimlarning mulohazalari.
3. So'z turkumlariaro ko'chish hodisasi
4. So'z-gap to'plamini ajratish tamoyillari, tasnifi
5. Alohida so'z turkumlari haqida nazariy qarashlar.

***IV.4. Amaliy o'zbek tili (V qism. O'zbek tili sintaksisi) fanidan seminar mashg'ulot uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:***

1. Birikuvchanlik va sintaktik aloqa
2. So'z birikmasi turlari va tasnifi
3. So'z birikmalarining lisoniy sintaktik qurilishi
4. Kesim – gap markazi va uning uyushtiruvchisi
5. Gap bo'laklari. So'z kengaytiruvchilari va gap kengaytiruvchilari

## V. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

*V.1. Amaliy o'zbek tili (I qism. O'zbek tili ortologiyasi) fanidan mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan topshiriqlar:*

1. XX asr o'zbek yozuvi bilan bog'liq islohotlar.
2. XXI asr o'zbek yozuvi bilan bog'liq islohotlar
3. Yozuvning til va nutqqa nisbatan ikkilamchi hodisa ekanligi.
4. Grafema tushunchasining yuzaga kelishi.
5. Grafika masalalarining o'zbek tilshunosligida ishlanganlik darajasi.
6. Orfografiya va orfografik me'yor.
7. O'zbek tilining kirill va lotin yozuviga asoslangan imloqoidalarining o'xshash va farqli jihatlari.
8. Lotin alifbosiga asoslangan o'zbek yozuvining asosiy imlo qoidalari
9. Hozirgi o'zbek imlosining munozarali masalalari.
10. O'zlashma so'zlar imlosi.
11. Joriy imlo lug'atlari tahlili.
12. Ko'chirish qoidalari bo'limlarining mazmuniy tavsifi.
13. Nasriy asarlarda qo'llangan tinish belgilarining o'ziga xos funksiyalari
14. She'riy matnlarda qo'llangan tinish belgilarining o'ziga xos funksiyalari
15. Zamonaviy adabiyotlarda tinish belgilarining noodatiy funksiyalari
16. Nashriyot ishlarida tinish belgilari bilan bog'liq muammolar
17. Bir funksiyali va ko'p funksiyali tinish belgilarining poetik matndagi lingvopoetik imkoniyati
18. Tire va ko'p nuqta uning lingvopoetik xususiyatlari
19. Qavs va uning lingvopoetik xususiyatlari
20. Tinish belgilari sinonimiyasi tahlili
21. Qo'shtirnoq belgisining qo'llanilishi
22. Tinish belgilarining yozuvda ifodalanishi.

23. Tinish belgilari muammosiga bag'ishlangan adabiyotlar tahlili
24.Muallif punktuatsiyasi.
25. Kompyuter lingvistikasi va unda tinish belgilarining o'rni

*V.2. Amaliy o'zbek tili (II qism. O'zbek tili fonetikasi) fanidan mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan topshiriqlar:*

1. Fonetika tovush tizmi haqidagi fan
2. Fonologiya haqida ma'lumot
3. Tovush va fonema munosabati
4. Nutq tovushlarining uch tomoni.
5. Fonemlar tasnifi.
6. Unli fonemalr tasnifi
7. Undosh fonemalar tasnifi
8. Fonetik hodisalar tasnifi.
9. Tovush tushishi.
10.Tovush almashinishi.
11. Tovush ortishi.
12. Yozuvda aks etmaydigan fonetik hodisalar.
13. Urg'u va uning og'zaki nutqdagi ahamiyati.
14. Urg'uning ma'no farqlash vazifasi
15. Urg'u turlari. So'z urg'usi.
16. Gap urg'usi. Emfatik urg'u.
17. Bo'g'in va uning ahamiyati.
18. O'zbek tilidagi bo'g'in modellari.
19. Bo'g'in turlari.
20. Tovush o'zgarishlarining o'zbek tilini sun'iy intellekt uchun moslashtirishda yuzaga keltiradigan muammolari.

*V.3. Amaliy o'zbek tili (III qism. O'zbek tili leksikologiyasi) fanidan mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan topshiriqlar:*

1. Leksikologiya. Okkozional va uzual ma'no.
2. O'z va o'zlashgan qatlamga oid so'zlar, so'z o'zlashtirish yo'llari.
3. Morfemika. O'zak va affiksal morfema
4. Yasama so'zlarning leksemalashuvi.
5. Tarixiy va sinxron derivatsiya tahlili.
6. Emotsional-ekpressiv bo'yoqdor, bo'yoqsiz, nutqiy-uslubiy xoslangan va xoslanmagan so'zlar.
7. Leksik sinonimiya, graduonimiya haqidagi nazariy qarashlar tahlili.
8. So'zning morfem tarkibi haqidagi nazariy qarashlar tahlili.
9. Giponimiya, partonimiya yuzasidan tahlil.
10. Frazeologiya haqida umumiy ma'lumot.



11. Frazemalarning semantik turlari.
12. Leksikografiya haqida ma'lumot.
13. Lug'at va uning turlari.
14. Lug'at tuzish qonun-qoidalari
15. Frazeologik monosemiya va polisemiya.

*V.4. Amaliy o'zbek tili (IV qism. O'zbek tili morfologiyasi) fanidan mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan topshiriqlar:*

1. Ot va sifat yasalishi muammosiga doir nazariy qarashlar tahlili
2. Boshqa turkum so'zlarning olmoshga ko'chishi (pronominalizatsiya)
3. Sifatlarda daraja kategoriyasi tahlili
4. O'zbek tilida hisob so'zlarining qo'llanilishi tahlili darslik va o'quv qo'llanmalar asosida.
5. Fe'larda grammatik kategoriyalari tahlili
6. Fe'lning funksional shakllari tahlili
7. Fe'lning modal shakllari tahlili.
8. Bog'lovchi, ko'makchi va yuklama haqida umumiy ma'lumot.
9. Undov, taqlid va modal so'zlar tahlili. Ularning o'rganilishi.
10. Son so'z turkumining grammatik kategoriyasi tahlili.
11. Ravish so'z turkumining lug'aviy va grammatik kategoriyasi tahlili.
12. Leksik va grammatik ma'no haqida umumiy ma'lumot.
13. So'z turkumlarining Grammatik xususiyatlari
14. Grammatik ma'noni ifodalovchi Grammatik kategoriyalar
15. So'z turkumlari yuzasidan umumiy tahlil

*V.5. Amaliy o'zbek tili (V qism. O'zbek tili sintaksisi) fanidan mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan topshiriqlar:*

1. So'z birikmasi lisoniy qurilishi: birikish omillari va usullari, SBLSQlari.
2. So'z birikmasining nutqiy voqelanishi (turli sohalarga oid matnlar asosida).
3. Sodda gapning lisoniy sintaktik qurilishi.
4. Sodda gapni murakkablashtiruvchi vositalar tahlili.
5. Sodda gaplarning nutqiy qo'llanilishi va pragmatik xususiyatlari (muloqot shakllari asosida).
6. Qo'shma gapning formal va substansial tahlili.
7. Qo'shma gaplarning badiiy matnda qo'llanilishi.
8. Murakkab qo'shma gaplar va ularning nutqiy ko'rinishlari (publitsistik, badiiy, ilmiy-ommabop asarlar asosida).
9. Uyushgan gaplarning nutqiy voqelanishi (badiiy asar misolida).
10. Ko'chirma va o'zlashtirma gaplarning tibbiy muloqotda voqelanishi.
11. Murakkab sintaktik butunliklar va matn sintaksisi.
12. Punktuatsiya va sintaksis orasidagi munosabat.

| | |
|---|---|
| | 13. Qo'shma gaplarning ilmiy matnda qo'llanilishi<br>14. Qo'shma gaplarning she'riy matnlarda qo'llanilishi<br>15. Sodda darak gaplarning ilmiy matnlarda qo'llanilishi<br><br>*V.6. Amaliy o'zbek tili (VI qism. O'zbek tili amaliy stilistikasi) fanidan mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan topshiriqlar:*<br>1. Til birliklarining uslubiy xoslanishi<br>2. Sodda gaplarning uslubiy imkoniyati.<br>3. Vositali, vositasiz to'ldiruvchilardan uslubiy foydalanish.<br>4. Atributiv birikma tobe komponentining uslubiy imkoniyati.<br>5. Harakat, belgi ifodalovchi bo'lak uslubiyati.<br>6. Murakkablashgan sodda gaplarning uslubiy imkoniyati.<br>7. Gapning ajratilgan bo'laklaridan uslubiy foydalanish.<br>8. So'zlar tarkibining o'zgarishi.<br>9. Undovlarning uslubiy imkoniyati<br>10. Matn uslubini aniqlashning tahrirga aloqadorligi.<br>11. Gaplarning parallel bog'lanishidan uslubiy foydalanish.<br>12. Gaplarning zanjirli bog'lanishidan uslubiy foydalanish.<br>13. Ko'chimning asosiy turlari va ularning uslubiy imkoniyatlari.<br>14. O'xshatish uslubni yuzaga chiqaruvchi vosita ekanligi.<br>15. Uslubga ko'ra qism, bo'lak orqali butun va aksincha, butun orqali qism, bo'lak atalishi.<br>16. Kichraytirishdan uslubiy foydalanish.<br>17. Sifatlovchining ekspressivlikni yuzaga chiqarishi.<br>18. Oksomoranning obrazlilik ifodasi.<br>19. Uchiriq (ironiya)ning uslubiy imkoniyati.<br>20. Zamon shakllarining uslubiy xususiyatlari |
| 3 | **VI. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar):**<br>Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:<br>• o'zbek tilining fonetik sathi, fonetika, fonologiya, fonema va nutq tovushi haqidagi;<br>• o'zbek tilining orfoepik qoidalari haqidagi;<br>• talaffuz va ohang haqidagi;<br>• fonetik o'zgarishlarning nutqda voqelanishi haqidagi;<br>• urg'u va uning turlari haqidagi;<br>• o'quvchilarni mustaqil tahsil olishga yo'llash haqidagi;<br>• imlo qoidalari va tamoyillarning o'ziga xos xususiyatlari, grammatikasi haqidagi **bilimlarga**;<br>• o'rganilgan talaffuz va imlo asoslariga doir bilimni amaliyotda qo'llay olish **ko'nikmalariga**; |



| | |
|---|---|
| | • bilim va ko'nikmalarni notanish vaziyatlarda qo'llay olish **malakasiga ega bo'lishi kerak.** |
| 4 | **VII. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:**<br>• ma'ruzalar;<br>• amaliy ishlarni bajarish va xulosalash;<br>• taqdimotlar qilish;<br>• blits-so'rov;<br>• matn ustida ishlash;<br>• tasniflash;<br>• jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar. |
| 5 | **VIII. Kreditlarni olish uchun talablar:**<br>O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrdagi 824-sonli qarori bilan tasdiqlangan "OTMlarda o'quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etish tartibi to'g'risida Nizom"ning 15- va 30-bandlariga asosan «Amaliy o'zbek tili» fanidan 300 soat (1-semestrda 150 soat, 2-semestrda 150 soat) *o'quv yuklamasini o'zlashtirgan,* fan dasturi (sillabus)da belgilangan baholash tartibiga ko'ra *ijobiy baholanib kasbiy kompetensiyalarni yetarli darajada egallagan* talabaga 10 (1-semestrda 5, 2-semestrda 5) **kredit beriladi.**<br>Talaba belgilangan *ta'lim olish natijalariga erisha olmagan taqdirda* **kreditlar berilmaydi.**<br>Talabalarning bilimini baholash O'zbekiton Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2018-yil 9-avgustdagi 19-2018-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi to'g'risida"gi Nizom talablari asosida belgilanadi.<br>**Talabalarning bilimini baholash mezonlari:**<br>**5 (a'lo) baho** – talaba mustaqil xulosa va qaror qabul qiladi, ijodiy fikrlay oladi, mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda;<br>**4 (yaxshi) baho** – talaba mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda;<br>**3 (qoniqarli) baho** – talaba olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda;<br>**2 (qoniqarsiz) baho** – talaba fan dasturini o'zlashtirmagan, fanning mohiyatini tushunmaydi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega emas deb topilganda. |

| | |
|---|---|
| 6 | **Asosiy adabiyotlar:**<br>1. Abduazizov A. O'zbek tili fonologiyasi va morfonologiyasi. – T.: O'qituvchi, 1992.<br>2. Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2013.<br>3. Mirtojiyev M.M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. I jild. - T.: O'zMU, 2004.<br>4. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili. - Toshkent: Universitet, 2006.<br>5. Mengliyev B. Hozirgi o'zbek tili (kirish, fonetik sath, leksik-semantik sath). Darslik. – Toshkent: Tafakkur bo'stoni, 2018. – 200 b.<br><br>**Qo'shimcha adabiyotlar:**<br>1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг карори "Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари" тўғрисида ("Халқ сўзи" 2017 йил, 21 апрель)<br>2. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. — T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2002.<br>3. Jamolxonov H.A. Fonetika, fonologiya va orfoepiya. Ma'ruzalar matni. – T.: Nizomiy nomli TDPU bosmaxonasi, 1999.<br>4. Mahmudov A. Unlilar. – T., O'zFA «Kibernetika» ilmiy ishlab chiqarish birlashmasi, 1993.<br>5. Mirtojiyev M.M. O'zbek tili fonetikasi. –T.: «Universitet», 1998. 2013<br>6. Ne'matov H. O'zbek tili tarixiy fonetikasi. – T.: «O'qituvchi», 1992.<br>7. Ne'matov H., Bozorov O. Til va nutq. "O'qituvchi", T.: 1993.<br>8. Nurmonov A.N. O'zbek tili fonologiyasi va morfonologiyasi. – T .: «O'qituvchi», 2005.<br>9. O'zbek orfografiyasining asosiy qoidalari. –T.: «FAN», 1956.<br>10. O'zbek tilining imlo lug'ati. – T.: «FAN», 1976.<br>11. O'zbek tilining kirill va lotin alifbolaridagi imlo lug'ati. – T.: «Sharq», 1999.<br>12. Rahmatullayev Sh.U. O'zbek tilining yangi alifbosi va imlosi. – T.: «Universitet», 1999 (qayta nashri – 2002).<br>13. Shoabdurahmonov Sh., Asqarova M., Hojiyev A., Rasulov I., Doniyorov X. Hozirgi o'zbek adabiy tili. I qism. "O'qituvchi", T.: 1980.<br>14. To'ychiboyev B. O'zbek tili tarixiy fonetikasi. –T.: «O'qituvchi», 1990.<br>15. Tursunov U.M., Muxtorov J., Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Qayta ishlangan, to'ldirilgan 3- nashri. – T.: «O'zbekiston», 1992.<br>16. Сайфуллаева Р.Р., Менглиев Б.Р., Боқиева Г.Х., Курбонова М.М., Юнусова З.К., Абузалова М.К. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Ўқув қўлланма. – Тошкент, 2006-2009. – 391 б. |



| | |
|---|---|
| | **Axborot manbalari:**<br>1.http://n.ziyouz.com/kutubxona/category/9-o-zbek-adabiy-tili<br>2. www. literature.uz<br>3. http://en.wikipedia.org/wiki/Structuralism.<br>4. http://natlib.uz – Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi sayti<br>5.http://ensiklopediya.uz – O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi sayti<br>6. http://ziyouz.uz – O'zbek va jahon adabiyoti portal<br>7. http://ziyonet.uz –O'zbekiston milliy ta'lim portali<br>8. http://kitob.uz/ - Respublika bolalar kutubxonasi<br>9. http://www.kamolot.uz – "Kamolot" yoshlar ijtimoiy sayti<br>10. http://www.infolib.uz – Respublika Axborot kutubxona markazi<br>11.http://book.uz – Elektron adabiyotlar kutubxonasi<br>12. http://txt.uz – Elektron kutubxona |
| 7 | Fan dasturi Universitet Kengashning 2023-yil ___-avgustdagi __-sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan. |
| 8 | **Fan/modul uchun mas'ul:**<br>E.G'.Xonnazarov – ToshDO'TAU, "Amaliy filologiya" kafedrasi o'qituvchisi |
| 9 | **Taqrizchilar:**<br>I.Islomov – ToshDO'TAU "Amaliy filologiya" kafedrasi dotsenti, f.f.d., DSc.<br>I.O'razova – ToshDO'TAU "O'zbek tilshunosligi" kafedrasi katta o'qituvchisi, f.f.f.d., PhD. |